

SHARQ DURDONALARIDAN NAMUNALAR TAHLILI (BUXORO ADABIY MUHITI MISOLIDA)

Zaxadullayev Abdug'ani Buriyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti O'zbek tili
va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17379418>

Annotatsiya: Maqolada sharq adabiyoti durdonalaridan biri Buxoro adabiy muhiti namoyondalari Abdurauf Fitrat va Ibrohim Haqqulning adabiy obzorlari va Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat kabi ijodkorlar haqida munaqqidlar yaratgan adabiy obzorlar tahlil qilingan.

Аннотация: В статье проанализированы литературные обзоры, созданные представителями литературной среды Бухары — одной из жемчужин восточной литературы, такими как Абдурауф Фитрат и Иброҳим Ҳаққул.

Также рассмотрены литературные обзоры, написанные критиками о таких деятелях, как Садриддин Айни, Файзулла Ходжаев и Абдурауф Фитрат.

Abstract: The article analyzes the literary reviews written by representatives of the Bukhara literary environment — one of the pearls of Eastern literature — such as Abdurauf Fitrat and Ibrohim Haqqul. It also examines literary critiques written by scholars about figures like Sadridin Ayni, Fayzulla Khojayeov, and Abdurauf Fitrat.

Kalit so'zlar: Buxoro, adabiy muhiti, adabiyotshunoslik, adabiy obzor, tahlil, jadidchilik

Ключевые слова: Бухара, литературная атмосфера, литературоведение, литературоведческий обзор, анализ, модернизм
Key words: Bukhara, literary environment, literary studies, literary review, analysis, modernism
Sharq adabiyoti asrlar davomida insoniyat tafakkuri, ruhiyati va ma'naviyatining chuqur qatlamlarini o'zida mujassam etgan.

Bu adabiy makon o'zbek xalqining madaniy merosida ham beqiyos o'rin tutadi. Ayniqsa, Buxoro adabiy muhiti — Sharq madaniyatining yorqin namoyandalaridan bo'lib, uning taraqqiyotida alohida bosqich hisoblanadi.

Buxoro qadimdan ilm, madaniyat va adabiyot markazi bo'lib kelgan. Bu yerda o'z davrining ilg'or ziyolilari yetishib chiqqan, ular o'z asarlari orqali nafaqat o'z yurti, balki butun musulmon Sharqining adabiy tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatgan.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Buxoroda shakllangan adabiy muhit yangicha fikr, jadidchilik ruhini o'zida mujassam etgan. Bu davrda Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Abdulhamid Sulaymon Cho'lpon, Ibrohim Haqqul kabi ijodkorlar adabiy sahnaga kirib keldi. Ularning asarlarida ijtimoiy tenglik, ma'rifat, milliy uyg'onish g'oyalari ilgari surildi.

Buxoro qadimdan boy madaniyat markazlaridan biri sifatida tanilgan, tarixan ko'plab buyuk shoirlar, yozuvchilar va olimlarni yetkazib bergan. Buxoro adabiy muhitining yorqin namoyondalaridan biri Abdurauf Fitrat asarlarida milliy uyg'onish, ijtimoiy adolat va o'zbek xalqining tarixiy va madaniy merosi tasvirlangan mavzularini ko'tarib chiqdi.

Fitratning "XVI asrdan so'nggi o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash" asari obzor maqola shaklida bo'lib, unda hali ilmiy jamoatchilikka yaxshi ma'lum bo'lmagan dalillar iste'molga kiritilib, qimmatli mulohazalar o'rta tashlangan. Muallif maqolada bu davrda qanday shoirlar ijod etgani va adabiyot nima hisobiga boyiganligini to'g'ri ko'rsatadi.

Adabiyotning bu davrdagi holatiga Fitrat e'tibor bilan qaraydi va xolis baho beradi. Fitrat obzor maqolada 16-asrdan boshlab o'zbek adabiyotini kuzatar ekan, adabiy ta'sir masalasiga ham chuqur to'xtaladi. 17-asrning ikkinchi yarmidan boshlab shoirlar ijodida "G'arb turkchasi" unsurlari ko'paya boshlaganini qayd etadi. Fitratning davr adabiy muhitiga to'g'ri baho berganligini uning har bir masalaga alohida to'xtalib, tanqidiy fikr yuritishida aks etadi.

Buxoro zamini ilm markazi sifatida jahonga mashhur va ma'lum ana shunday insonlardan biri, mumtoz adabiyot tarixi, tasavvuf ilmining bilimdoni, yassaviyshunos olim Ibrohim Haqqulovdir. Yaqin davr adabiyotshunosligida Ibrohim Haqqul nomi alohida e'tiborga loyiq. U o'z asarlarida Fitrat, Ayniy, Cho'lpon singari ijodkorlarning asarlarini chuqur o'rganib, ularning adabiy-estetik jihatlarini ochib bergan. Haqqulning adabiy obzorlari — nafaqat tahliliy, balki tarixiy manba sifatida ham bebaho. Munaqqidning "Shoir bo'lish qiyin" adabiy obzorida 80-yillar she'riyatiga asosan yoshlar ijodiga keskin tanqidiy fikr bildirilgan. Adabiy tanqid har bir ijodkorning o'zi qiziqqan sohasi bo'lishi bilan ajralib turadi, jumladan Ibrohim Haqqul mumtoz adabiyot, yassaviyshunoslik, hozirgi adabiy jarayonning sergak kuzatuvchisi, munaqqidlar orasida o'z so'zini ayta olgan tanqidchi. Olim adabiy obzor boshida 70-yillarda ijod qilgan shoir Muhammad Sodiq haqida Erkin Vohidovning fikrlarini keltiradi: "Men bu iste'dodning kelajagi porloq, o'z avlodi va zamon nafasini kelajakka yetkazuvchi haqiqiy ma'nodagi shoir bo'lishiga ishonaman" [3,215]. Haqiqatdan ham bu davrda ijod qilgan shoirlar Usmon Azim, Xurshid Davron, Muhammad Solih, Shavkat Rahmonlarning she'rlari mana yillar o'tsada, o'zining ta'sirini yo'qotmayapti, har safar o'qiganda inson qalbi, orzusi, borlig'ini junbushga keltirishdan to'xtamayapti. Munaqqid 80-yillarda ijod qilayotgan she'r talabi bilan oshufta qalblarning nidosiga quloq solib, bu davr ijodkorlarini anchagina keskin tanqid qiladi, olimning yosh shoirlarga munosabatidan shuni sezish mumkinki, u ruhiy teranlik timsoli bo'lgan she'riyatga befarq qaray

olmaydi, she`riyatda eng oliy ibrat namunasi sifatida mumtoz adabiyotni bilgan munaqqid yoshlarning o`tmish adabiyotidan kam bilimga ega ekanliklaridan ruhan qiynaladi. “Avtorning ilk kitobi” seriyasi va “Yashash imkoni” nomli to`plamga kirgan Sobir Jabbor, To`ra Mirzo, Xudoyberdi Eshonqulov, Muhammad Haydarov, Q.Bekmurodov va boshqa ko`plab shoirlarning she`riyatdagi ilk mashqlarini tahlil qilgan ijodkor, she`rlarga qat`iy talablar qo`yadi chunki u shoirlilikni havasdan boshlanib havas chegarasiga qolib ketishini istamaydi. Yurak olamiga, yurak haqiqatlariga qaytish san`ati bo`lgan ijod turi she`riyat haqida munaqqidning aytgan fikrlari qalblarni jumbushga keltirib, aqlni bir lahza o`ylashga majbur qiladi: “she`r yashnab yotgan laxcha cho`g`. Lekin u o`zidan ancha olis, teran joyda gurillab yotgan alanga- haroratini aks ettirmas ekan, haqiqiy she`rmas, fikriy kambag`allik surati, xolos!” [3,216]. Olim ana shunday so`zga, fikrga tashna, iste`dodli, umid va orzularini aniq maqsad ya`ni adabiyotni yuksaltirishni niyat , qasd qilgan yosh shoirlarni topish mushkul ekanligidan kuyinadi. Sobir Jabborning bir she`rini tahlil qilib, shoirda so`z tabiati va ruhi kamligi, uning fikrlari tarqoq, she`r kayfiyati yetishmasligini aytadi:

Kecha mening qonimni ichar,
Tomirimda quyilar kunduz.
Yurak tanavvuli – sevinchlar,
Salomat bo`l zahmatkashim, So`z.
Halol bo`lsin topgan-tutganing.

Yuqoridagi misralarni tahlil qilgan munaqqid undagi “Yurak tanavvuli sevinchlar” misrasini “g`irt yasama fikrlar” deya asosli tanqid qiladi. Shoirning yana bir she`ridagi “Men so`zlardan gullar yasayman” degan qatorini olib, bunda u shoirning nazmlari o`zi aytgandek, so`zdan qilingan yasama gullardek jonsiz, tarovatsizligini ta`kidlaydi. Bu adabiy obzorni o`qiyotgan kitobxonda dastlab Ibrohim Haqqul faqat kamchikliklarni ko`rsatib, yosh ijodkorlarni qo`llab quvvatlaydigan fikrlarni bildirmabdi-da degan xayol kelishi tabiiy, biroq obzor bilan chuqurroq tanishish davomida olimning yosh shoirlar ijodi haqidagi iliq munosabatlarini ham ko`rish mumkin. Masalan, To`ra Mirzoning “Maysalar hayqirig`i” to`plamidagi she`rlarni tahlil qilib bunda yosh shoirning hayot hodisalarini shoirona nazar bilan ko`ra olganligini, uning o`z ovozi, misralarda keltirilgan ma`nolar olamining turfa xilligini faxr bilan aytadi. Shoirning quyidagi misralarini keltirib, bunda shoirlarni vatan qo`riqchilariga mengzaydi, ular xalqning qalbi dushmanlar qo`liga o`tmasligi uchun, ijod qiladilar, xalqona ohanglarda qo`shiqlar yaratadilar:

Shoirlar dunyoni ishonmas tunga,
Ko`zlari vatanni qo`riqlar bedor.

Yem bo'lmasin xalqning erki quzg'unga,

Darmonsiz imonni bosmasin ag'yor. Bu shoirning she'rlari nuqsonsiz, kamchiliklarsiz emas deb aytolmaymiz, albatta, sinchi munaqqid tanqidiy ko'z bilan shoir she'rlaridagi kemptikliklarni ko'ra olgan. "Nur" obrazi bilan bog'liq misralarning juda ko'pligi, "bir joyda yer tepayotgan kishiga o'xshab", shoir u yoki bu shaklga solib bir so'zni qayta qayta aytishini tanqid qiladi. Masalan: "Tadorik" she'rida "Jamlab ko'zlarimning asl nurlarin" yoki "Vatan" she'ridagi "Nurga oqlikni berib, Qorasin yut ko'krakka" va boshqa ko'plab she'rlarida aynan bir obrazning takror kelishi uchraydi, masala bir obrazning takror kelishida emas balki, uning g'oyaviy- badiiy harakatlarini ta'minlay bilmaslikda ekanligi munaqqidni qalbini azoblaydi. Ibrohim Haqqulning adabiyotshunos olim sifatida adabiy jarayondagi yaratilayotgan asarlar bilan hamnafas ekanligi uning she'riyat haqidagi tahlillari ham tasdiqlaydi. Xususan, shoir K.Bekmurodovning shakliy rang-baranglikka intilib yozgan uchlik she'rlarini tahlil qilar ekan, ularning ko'pchiligida poetik shaklga aloqasi yo'q gaplar borligini, bundan tashqari, ijodkor o'ziga tegishli bo'lmagan mashhur fikrlarni ham o'zini qilib aytaverganini tanqidchi hech istixola qilmay ochiq aytadi. Shoirning uchlik shaklidagi quyidagi bayti aynan bolqor shoiri Qaysin Qulliyev ijodidagi bir she'rning aynan o'zi, faqat uchlik shaklida emas, xolos:

Vatanga otilgan o'q

Avvalo shoirning yuragiga qadaladi.

Chunki, vatan uning qalbi.

Yuqoridagi tahlillardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, bunday keskin tanqidiy ruhdagi adabiy obzorni yozish uchun katta jasorat kerak, olim bir intervyusida aytgan fikri buni isbotlaydi: "haqiqatning yuki nihoyatda og'ir bo'ladi, haqiqatni aytish uchun, haqiqat uchun kurashuvchi insonning kafani yelkasida bo'ladi". Munaqqid butun umri davomida aytgan ilmiga amal qilib yashadi, olimning she'rshunoslik, mumtoz adabiyot, adabiy tanqid ravnaqi uchun qilgan xizmatlari benihoya cheksiz bo'lib, adabiyot jonkuyari sifatida avlodlar qalbida abadiy yashaydi. Adabiy obzorlar adabiyotni rivojlantirishda, adabiy jarayonni qizg'inlashtirishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga har bir obzor chuqur mantiqiy ildizga ega bo'lib, asosli, mulohaza va muhokamalari ilmiy-nazariy jihatdan puxta bo'lishi zarurligi yaqqol ko'rinadi. Buxoro adabiy muhiti haqida, unda ijod qilgan ijodkorlar va ularning asarlari tahlil qilingan adabiy obzorlarni keltirishni lozim topdik. Bahodir G'ulomovning "Sahna asarlarida dramatism" adabiy obzorida 70-yillar dramaturgiyasiga nazar tashlangan bo'lib, bu davrda yaratilgan dramalardagi qahramonlarning maqsadlari yo'lidagi intilishlari, o'ziga xos individual xususiyatlari, dramatik kechinmalarining tasvirlanishiga alohida e'tibor berilgan. Komil Yashinning "Inqilob tongi" nomli

dramasi tahlil qilingan, bu asarda Buxoro ziyolilarining harakari ko'rsatilib, ularning islohotlari Fozilxo'ja obrazida tasvirlangan. Fozilxo'ja zaminida Fayzulla Xo'jayevning faoliyati asos qilib olinadi, asar asosida o'quvchi tasavvurida Buxorodagi jadidchilik harakati, "Yosh buxoroliklar"ning faoliyati, ozodlik uchun olib borilgan kurashlarning mohiyati aks etadi. Fayzulla Xo'jayev obrazi ishtirok atgan asarlar tahlili Akram Kattabekovning "Hayot haqiqatidan badiiy haqiqatga" adabiy obzorida ko'rish mumkin. Obzorda 80-yillarda yaratilgan adabiy durdonalar tahlilga tortiladi. Bu obzorda Asqad Muxtorning "Buxoroning jin ko'chalari" qissasi ham tahlil qilinib bunda atoqli davlat va siyosat arbobi, Buxoro jadidchiligining faol ishtirokchisi, "Yosh buxoroliklar" harakatining rahbarlaridan biri Fayzulla Xo'jayev hayoti va faoliyati tasvirlanadi. Olim qissaning yutug'i sifatida shuni ko'rsatadiki, Asqad Muxtor tarixiy real shaxs obrazini chizishda yozuvchilarda odat bo'lgan adabiy qoliplardan qochadi. Asarning bosh qahramoni tarixiy shaxs bo'lganligi sababli, yozuvchi real faktlarga asoslanishi, tarixiy voqealarni asliga mos qilib yozishi kerak. Asqad Muxtor bunday qiyin vazifani uddalay olgan va qahramon tarjimai-holiga doir bo'lgan faktlarni faqat aytib o'tish emas balki, ularning tug'ilish sabablarini ham asoslab bergan. Qahramon haqiqat izlab kelgan "jin ko'chalar" tasviri ayniqsa, o'quvchi e'tiborini tortadi, albatta. Tarixdan ma'lumki, Fayzulla Xo'jayevga otasidan katta meros qoladi, asarda bosh qahramonning otasi qurshovidagi odamlardan najot izlashi, Shorajab mufti, Zufunun bilan yaqinlashishi, jadidlar tomoniga o'tib ma'rifatchilikka berilishi nihoyatda obrazli tarzda tasvirlanadi. Yozuvchi tomonidan bosh qahramon tinimsiz fikrlash, mulohaza yuritish va ziddiyatli ichki kechinmalar ichida tasvirlanadi. Adabiy obzorning obyektini keng qamromli bo'lib, ijodkor ma'lum davrda yaratilgan asarlarni istaganicha tahlil qilishi mumkin. Ilg'or tanqid hayotda ijtimoiy, ma'naviy, estetik yangiliklarning paydo bo'lishiga ko'maklashadi, ular uchun kurashadi. Sho'ro davri O'zbekistonda 1924-yildan mustaqillik davrigacha davom etgan bo'lib, bu tuzum hayotning deyarli barcha jabhasida o'zgarishlar sodir qilgan, jumladan, adabiyot sohasida ham. Bu ta'limotga ko'ra, adabiy tanqid garchi badiiy estetik hodisa deb e'tirof etilsa-da, lekin kommunistik g'oyaviylik uning mohiyatini belgilovchi yetakchi unsur sifatida talqin etilardi. Bu haqida Qurdosh Qahramonovning doktorlik dissertatsiyasi orqali ko'plab ma'lumotlarni uchratamiz: "Sinfiylik va uning oliy ko'rinishi deb ta'riflangan partiyaviylik haqidagi nazariyobozliklar adabiyot va san'at ravnaqigagina emas, tanqid rivojiga ham juda katta zarar yetkazdi: tanqidning maqsadi va vazifalari tamoman o'zgartirib yuborildi, bu soha g'oyaviy kurashning quroliga aylantirildi. Hatto estetik hodisalar sanaluvchi umuminsoniy tushunchalar: ijobiylik yoxud salbiylik, go'zallik va fojiaiylik, ma'naviy barkamollik kabi ko'plab kategoriyalar

ham sinfiylik mezonlariga bo'ysundirildi." [4, 207] Adabiy obzorlar tahlili davomida ayniqsa, bu davrning ta'siri adabiyotshunosligimizga nechog'lik katta bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bu davrning ijobiy jihatlari bo'lmagan degan fikrdan yiroqmiz, ko'plab iste'dodli tanqidchilar o'sha davrda yozilgan asarlarni badiiy-estetik tomondan baholashga urinishgan, badiiy jihatdan bo'sh, sayoz kitoblarga qarshi kurashishgan. Ammo hokim mafkura adabiy tanqidning erkin faoliyat yuritishiga, taraqqiy etishiga to'sqinlik qilgan. Iste'dodli tanqidchilar o'z iste'dodlarini badiiy asarlar tahliliga emas, balki mafkuraviy kurash maydonidagi olishuvlarga sarflashga majbur bo'lganlar. Hukmron mafkura ta'sirida yozilgan adabiy obzorlardan yana biri Umarali Normatovning "Hayot saboqlari" nomli maqolasi bo'lib, bunda munaqqid realistik adabiyotlarni sharhlagan. Adabiy obzorda Buxoro adabiy harakatining yirik namoyondalaridan biri Sadridin Ayniyning "Qullar" romani haqida ham fikr yuritiladi. Ijtimoiy tuzumda biryoqlamalik shu darajaga borib yetadiki, dushman sinfnig har bir hatti- harakatini, sovet adabiyotshunoslari nazarida yomonlikka, o'z sinfi vakillarining dushmanligini yaxshilikka burish avj olgan edi. Masalan asardagi bir boyning biyani so'yib xalqqa osh berishi ham dushmanlikka yoyiladi. Bunda boyning osh berib, to'y qilishi mehnatkashlarni ishdan qoldirish uchun ataylab qilingan degan xulosaga kelinadi. Bu holat realizmga mutlaqo zid ekanligi munaqqid tomonidan tahlil qilinadi. Roman qahramonlari Hasan va Qutbiya orasidagi munosabatlarni baholagan munaqqid Hasanning sevgilisiga qo'ygan talabini keltiradi: "Ota- onangdan aloqangni uzganing uzgan bo'lsin, ularni butunlay unutasan, bu bir. Kerak bo'lgan vaqtda kollektiv oldida ota-onangning sirlarini ochib berasan, bu ikki. Uchinchi shartim shuki, menga ish va mehnat yo'ldoshi bo'lasan." [2, 87] Ayniyning adabiy faoliyati tanqid qilinib, adibning asarni realist yozuvchi sifatida asarni badiiy tahlil qilolmaganligi, uning voqealari esa Hasan tipidagi shaxslar saviyasiga tushib, ularning mafkurasi nuqtayi-nazaridan kelib chiqilgani, mafkuraviy bir yoqlamalikda yozilgani tanqid qilinadi. 80-yillarda adabiy tanqid tafakkurida yangilanish ro'y bera boshladi, biroq bu jarayon ham silliq kechgani yo'q, ayrim chiqishlarda o'tgan yetmish yildan ziyodroq davr mobaynida adabiy jarayonda faoliyat ko'rsatgan ijodkorlarni, ularning adabiy merosini butunlay qoralash yoki hamma aybni sho'ro siyosatiga ag'darib, o'sha davr adiblarini mutlaqo oqlashga urinishdek biryoqlama harakatlar kuzatildi. Adabiy obzorda keskin tanqidiy fikrlar nihoyatda ko'p uchraydi, bu davrda ijod qilgan munaqqidlarning asosli tanqidlari mustaqillik davriga kelib o'z mevalarini berdi, adabiyotga munosabat ijobiy tomonga o'zgardi, mafkura qoliplaridan qutuldi. Buxoro adabiy muhiti — Sharq adabiyoti durdonalari orasida alohida o'rin egallagan. Bu muhitda yetishib chiqqan ijodkorlar — Fitrat, Ayniy, Haqqul kabi mutafakkirlar o'z asarlari orqali o'zbek adabiyotining milliy g'oyaviy



asoslarini mustahkamladi. Ularning adabiy obzorlari, tanqidiy tahlillari va publitsistik merosi bugungi adabiyotshunoslik uchun bebaho manba bo'lib xizmat qilmoqda. Shunday qilib, Buxoro adabiy muhiti Sharqning ma'rifiy uyg'onish jarayonida porloq yulduz sifatida ajralib turadi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, buxoro adabiy muhitida ijod qilgan har bir ijodkor o'zidan cheksiz ma'naviy meros qoldirgan, bu merosni tadqiq qilgan munaqqidlarning adabiy obzorlari bu durdonalar haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Asarlarni tahlil qilishda tanqidiy fikrlarning mavjudligi ijobiy bo'lib, tanqidiy fikr qanchalik haqqoniy va talabchan bo'lsa, adabiyotimizning muhim masalalarini qanchalik dadillik bilan ko'tarsa, uning ta'siri shunchalik kuchli, natijasi esa shunchalik samarali kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2000. жилд. –Б. 59.
2. Аунй.Асарлар. 8 jildlik. 3-jild. Qullar.www.ziyouz.com
3. Ҳаққулов И. Шоир бўлиш қийин.Шарқ юлдузи, 1985, № 3.
4. Қахрамонов Қ. Истиклол даври ўзбек танқидчилиги
5. методологиясининг янгиланиш тамойиллари. Филол. фан.д-ри дисс.–
6. Тошкент, 2011.-Б. 326.
7. Норматов У. Ҳаёт сабоқлари. Шарқ юлдузи, 1990, №4.
8. Каттабеков А. Ҳаёт ҳақиқатидан бадий ҳақиқатга. Шарқ юлдузи, 1981, №10.
9. Ғуломов Б.Саҳна асарида драматизм. Шарқ юлдузи, 1982, №2..